

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar va ularning mevasidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi: Qashqarbada (Medicágo satíva), Topinambur (Heliánthus tuberósus), Qariqiz ildizi (Arctium láppa), Yaylov o‘ti urug‘i (Trigonélla foénum-graécum), Qichitqi o‘t (Urtíca dióica), Brusnika barglari (Vaccínium vítis-idaéa).

PREPARATNING TA‘SIRI

- Qashqarbada qalqonsimon va oshqozon osti bezlari funksiyalari buzilishida qo‘llaniladi. U qandli diabetga samarali ta‘sir ko‘rsatadi va qonda qand miqdorini tushiradi. Qashqarbada organizmdan toksinlarni chiqaradi. Bu o‘simlik mikroblarga qarshi, immunomodulyator va yara bitkazuvchi xususiyatlarga ega. Bu xususiyat oyoq diabete kabi kasallik rivojlanishida qo‘l keladi. Qashqarbada tarkibidagi alkaloidlar qondagi qand miqdorini tushiradi, tolalari esa shimib oluvchi xususiyatga ega;
- Topinambur flavonoidlar manbai bo‘lib, fruktozaning tabiiy polimeri – inulin va boshqa biofaol moddalar (gemisellyuloza, oqsillar, uglevodlar, minerallar, vitaminlar, karotin)dan tarkib topgan. Topinamburning faol moddalar kompleksi uglevod va lipidlar almashinuviga ta‘sir ko‘rsatadi, ichak florasi va hazm qilish jarayonlarini yaxshilaydi. Qandli diabetli bemorlar ovqatlanish ratsioni topinambur bilan boyitilgan bo‘lsa, qonda glyukoza miqdorini tushishi isbotlangan. Topinambur 1-va 2-tipdagi qand diabete, ateroskleroz, hamda oshqozon ichak trakti patologiyasida kompleks davoga yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi;
- Qariqiz oshqozon osti bezining fermentativ faoliyatini kuchaytiradi. O‘simlikdagi ko‘p miqdordagi inulin, qondagi leykotsitlar sonini normallashtiradi, moddalar almashuvini nisbatan yaxshilaydi;
- Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yaylov o‘ti uglevodlar tiyilishi, hazm qilinishi va so‘rilishi, hamda insulinning periferik faoliyatini oshirish yo‘li bilan qondagi qand miqdorini tushirishi mumkin;
- Qichitqi o‘t tarkibiga kiruvchi elementlar qondagi glyukoza miqdorini asta-sekin tushiradi;
- Brusnika qondagi qand miqdorini samarali tushiradi. Mikroblarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, istma tushiruvchi, siydik va safro haydovchi xususiyatlarga ega.

QO‘LLANILISHI

- Uglevodlar almashinuvida biokorrektor;
- Uglevodlar almashinuvini normallashtirishda, qondagi qand miqdorini tushirishda;
- Energetik taqchillikni susayishida;
- Yog‘lar va xolesterin almashinuvining buzilishida;
- Semizlik, vazn kamayishiga va barqarorlashishiga yordam beradi;
- Periferik qon aylanishini va qon tomirlar o‘tkazuvchanligi buzilishida.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediylariga yuqori sezuvchanlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

2 tabletkadan kuniga 3 mahal.

Preparat ovqatlanish vaqtida kabul kilinadi. Preparatni qabul qilish davomiyligi - 1 oy.

Takroriy davolanish 1 haftadan keyin.

NOJO‘YA TA‘SIRI

Preparatning ba‘zi tarkibiy ingrediyentlariga organizm sezuvchanligi yuqori bo‘lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

Preparatning nojo‘ya ta‘sirilari kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtatish va shifokorga murojaat qilish kerak.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatni me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2 S-dan +25°S-gacha haroratda saqlanishi lozim. Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz

